

MOLIYAVIY CHEKLOVLAR SHAROITIDA AKSIYADOR TIJORAT BANKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Samatova Xayola Baxtiyarovna

Toshkent viloyati Xalq banki Bekobod BXM menejeri

Annotatsiya: Tijorat banklari bank tizimida kapitalning yetarlilik darajasi va aktivlar sifati yuqori saqlanib qolishi banklar mamlakatimizda iqtisodiy o'sish sur'atlarining izchilligini ta'minlash, tarkibiy o'zgarishlarning faol ishtirokchisiga aylanish, tizim shakllantiruvchi muhim ishlab chiqarish ob'yektlari ishga tushirilishi, tadbirkorlik ravnaqiga ko'mak berish, ijtimoiy-iqtisodiy infrastrukturani kengaytirishning moliyaviy tayanchi hisoblanadi. Masalaning yana bir jihat bo'lib, bunda moliyaviy cheklov sharoitida aksiyador tijorat banklari faoliyati iqtisodiyotga ta'sirini o'ziga qamrab oladi. Ayni shu jihatdan maqolada moliyaviy cheklov sharoitida tijorat banklarining faoliyatini takomillahtirish yuzasidan fikrlar bildirildi. Bank faoliyatini boshqarishni rivojlantirish, moliyaviy barqarorlikka olib chiqish bo'yicha takliflar berildi.

Kalit so'zlar: Aksiyador tijorat banki, bank tizimi, likvid, ustav kapitali, hisob-kitob xizmatlari, bank sarmoyadori, kapital harajatlar, bank ssudalari.

Tijorat banklari faoliyatini xalqaro mezon va shakllar asosida tashkil etish, banklarning buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarini umum qabul qilingan talablarga muvofiqlashtirish borasida olib borilgan ishlar bank nazorati bo'yicha tizim tashkil etilgan. Ularga ko'ra, tijorat banklari kapitalining yetarligiga qo'yilgan talablar oshirilib, likvidlikni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha me'yorlar joriy qilindi, bank aktivlari sifatini tasniflash va xatarlarni boshqarish tizimlari yanada takomillashtirish chora-tadbirlari amaliyotga tadbqiq etildi.

Tijorat banklarining moliyaviy holati barqarorligi hamda iqtisodiyotda sodir bo'ladigan keskin o'zgarishlarga bardosh bera olishi ko'p jihatdan ularning kapitallari miqdori va kapitallashuv darajasiga bog'liqdir.

Banklar kapitalning muntazam oshirib borilishi so'nggi yillarda ro'y bergan global iqtisodiy inqirozlarning milliy iqtisodiyotga ta'sirini yumshatishga sharoit hozirladi va bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar uzluksiz davom etadi. Tijorat banklari bank tizimining quyi bo'g'ini bo'lib, mijozlarga tijorat tomoyillarida kredit, hisob-kitob xizmatlari ko'rsatish yuzasidan vazifalami bajaradigan mustaqil bank muassasa tarmoqlaridan iborat. Tijorat banklari amalda o'z mijozining xo'jalik faoliyati xizmati bilan bog'liq kredit, hisob-kitob va moliya operatsiyalarini barcha turlarini bajarib xizmat ko'rsatadi.

Tijorat banklari sanoat, savdo va boshqa xil korxonalarini asosan omonat tarzida jalb etilgan pul mablag'lari hisobidan kreditlaydi, korxonalar o'rtasida hisob-kitoblarini amalga oshiradi, shunindek fond, vositachilik va valuta operatsiyalarini bajaradi. Tijorat banklari o'z mijozlarining asosiy agenti ishonch bildirgan shaxsi, topshiriqlarni bajaruvchisi, ular mablag'larining bosh tasarrufchisi, aksiyalar hamda bankdagi hisob varaqlar egalari aksariyat ko'pchiligi uchun eng yaqin maslahatchi va ekspert sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bizning uchun ular asosiy iqtisodiy, moliyaviy masalalar hamda shu bilan bog'liq yuridik muammolarni chuqur va juda yaxshi bilishi, rivojlangan axborot-tahlil bazasiga ega bo'lishi va ayni paytda o'z vazifalariga taallukli har qanday so'rov bo'yicha konkret yordam bera olishi kerak.

Bankning moliyaviy cheklov sharoitida moliyaviy ahvolini tuzatish va uning iqtisodiy barqarorligini yaxshilash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- Bank sarmoyadorlarining imkoniyatlarini ko'rib chiqish va yil oxiriga qadar bankning ustav kapitalini e'lon qilingan miqdorga yetkazishni ta'minlash ishlarini bajarish;
- Muddati o'tgan qarzlarni qaytarish uchun tegishli tadbir asosida choralar ko'rish va kaytishi mavhum bo'lgan kreditlar uchun zahiralarini belgilangan me'yorga yetkazilishini ta'minlashni amalga oshirish;
- Bankning aktivlarini daromad keltirmaydigan qismini kamaytirish va o'z navbatida daromadlik imkoniyatini oshirish uchun aktiv mablag'larni asosan tavakkalchilik darajasi kam bo'lgan DKK bozoriga yo'naltira bilish;
- Bank bo'limlari va binolarini ko'rish bo'yicha amalga oshirilgan 290,5 mln so'mlik kapital xarajatlarni bankning norentabel bo'limlarining bino va inshootlarini, bankning asosiy faoliyatida muhim bo'lmagan vositalarni sotish orqali qoplash ishlarini bajarish;
- Bank ssudalari bo'yicha muddati o'tgan foizlarni to'liq qaytarib olib, shu so'mmani bankning muddatsiz depozitlardagi majburiyatlarga ishlatish uchun bankning vakillik varaqasida saqlash;
- Bank ma'muriyatiga, transportga, ish haqi va shu bilan birgalikda unga tenglashtirilgan xarajatlarni bank daromadligiga bog'liq ravishda hisoblashni amalga oshirish;
- Bankning aktivlarini marketing tadqiqotlariga bog'liq ravishda taqsimlashni yo'lga qo'yishni takomillashtirish.

Xulosa qilib shuni ko'rsatishimiz mumkinki, banklarning bankrotlikka uchrash quyidagi eng asosiy holatlarda ro'y berishi mumkin: ssudalarning qaytmasligi va boshqa aktivlar qiymatining yo'qotilishi, likvid mablag'larning minimum darajadagiligi va asosiy faoliyatdan ko'riladigan zararlar shuningdek, ushbu

zararlarni omonatchilar va mijozlar mablag'lari hisobidan qoplash. Bank likvidlikning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda likvidliktivlarga zarur miqdorini beliglab olishlari shart. Mazkur omillarga quyidagilar kiradi:

1) omonatchilarning ko'payishi yoki kamayishiga ko'ra mablag'larga ega bo'lish yoki ularni yo'qotish bank jalb qilingan mablag'lar bo'yicha majburiyatlarni yaqin muddatlarda bajarishi lozim, bu omonatlar va boshqa passivlarning muddatlari bilan bog'liq, hamda bankda qoladigan depozitlar miqdorini (asosiy deponentlar) hisob varaqdan olinadigan yoki darhol to'lanadigan depozitlar va boshqa passivlar bilan qiyoslangan holda tahlil qilish kerak;

2) omonatlar summasining o'sishi yoki qisqarishiga muvofiq majburiy zahiralar me'yoriy miqdorining ko'payishi yoki kamayishi ham likvidlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

3) ssudalar va investitsiyalar summasining oshishi yoki kamayishiga ko'ra mablag'lar oqib kelishining ko'payishi yoki pasayishi ushbu omilning ta'siri iboratki, ssudalar va investitsiyalar miqdoridir har bir oshishi likvidliktivlar ulushini kamaytiradi, chunki investitsiyalar uzoq muddatga asoslangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mullajonov F. O'zbekiston bank tizimi: molyaviy barqarorlik va iqtisodiyotni modernizatsiyalash yo'lida. // Bozor, pul va kredit. – 2011. - №1.
2. Pul – kredit sohasidagi mavjud vaziyatlar va monetar siyosatning 2011- yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. // Bozor, pul va kredit. – 2011. - №1.
3. Muxammedov L. Tijorat banklari barqarorligini baholash tizimining rivojlanishi. // Bozor, pul va kredit. – 2011. - №4.
4. Qodirov A. O'zbekiston bank tizimi: yuksalish odimlari // Bozor, pul va kredit. – 2005. - №9.
5. Hoshimov E. Bank kapitali va likvidligini tartibga solish: yangicha yondashuvlar. // Bozor, pul va kredit. – 2011. - №4.
6. M.To'laganova, F.Musayeva. Tijorat banklari kredit faoliyatining tahlili. // Bozor, pul va kredit, №3,2005.
7. С.Абдуллаев. Принципы реструктуризации проблемных кредитов. // Бозор, пул ва кредит, №10,2006.